



FIRIBGARLIK JINOYATI VA UNGA IMKON BERGAN ZAMONAVIY SHART-SHAROITLARNI ANIQLASH VA BARTARAF ETISHNI TAKOMILLASHTIRISH

O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi universiteti magistratura tinglovchisi Mirzaraximov Zohirjon Ochilovich

Annotatsiya: maqolada firibgarlik jinoyati tushunchasi, uning fuqarolik-huquqiy munosabatlardan farqli jihatlari va uni bartaraf etish yo‘llari haqida fikrlar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: Huquqbuzarliklar profilaktikasi, qonun, firibgarlik, tushunchalar, profilaktik metodlar, yakka tartibdagi profilaktikalar.

O‘zbekiston Respublikasining “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi qonunining senat tomonidan ma‘qullanishi (2014 yil 10 aprelda) tarixiy voqealardan biri bo‘ldi. Ushbu qonun 7 ta bob, 51 ta moddadan iboratdir.

Qonunning 3-moddasi asosan huquqbuzarliklar tushunchalariga bag‘ishlangan bo‘lib, bunda 6 ta tushunchaga izoh berilgan. Ayniqsa, huquqbuzarliklarning profilaktikasining asosiy vazifalari qonunning 4-moddasida batafsil yoritilib berilgan bo‘lib, unda “Huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi organlar hamda muassasalar faoliyatining o‘zaro hamkorligini ta‘minlash va ularning faoliyatini muvofiqlashtirish” muammolari alohida ko‘rsatilgan. Ushbu qonunda har bir huquqni muhofaza qiluvchi organlarning profilaktika sohasidagi vakolatlari alohida-alohida moddalar bilan belgilab qo‘yilgan. Shundan O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi organlarning huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasidagi vakolatlari (122-modda)da berilgan bo‘lib ushbu moddada “Huquqbuzarliklar profilaktikasining amalga oshiradi, shu jumladan mazkur huquqbuzarliklarning sodir etilish sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlaydi, bartaraf etadi” deyilgan qonunda.

Huquqbuzarliklarni oldini olishda ayniqsa, firibgarlikni o‘ziga xosligi muhim muammo sanaladi. Ayniqsa, firibgarlik jinoyatlarining oldini olishda maxsus profilaktik choralarni qo‘llash maqsadga muvofiqdir. O‘zbekiston Respublikasining huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risidagi qonunining (2014-yil 10 aprel) 24-moddasida “Huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organlar va muassasalarning ayrim turdagi huquqbuzarliklar profilaktikasiga, bu turdagi



huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni bartaraf etishda ayrim toifadagi shaxslarni aniqlash va ularga profilaktik ta'sir ko'rsatishga qaratilgan maxsus tadbirlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishga doir faoliyati huquqbuzarlarning maxsus profilaktikasidir" deb ko'rsatilgan.

O'zbekiston Respublikasining amaldagi jinoyat qonunchiligiga ko'ra, firibgarlik - aldash yoki ishonchni suiiste'mol qilish yo'li bilan o'zganing mulkini yoki o'zganing mulkiga bo'lgan huquqni qo'lga kiritishda ifodalanadi. Bundan ko'rinadiki, firibgarlik jinoyatini tashkil qiluvchi harakatlar o'zga shaxsni aldashni yoki ishonchni suiiste'mol qilishga qaratilgan va buning natijasida o'zga shaxsning mol-mulkini qo'lga kiritishga qaratilgan harakatlarni qamrab oladi.

Qonunchilikka ko'ra, firibgarlik uchun bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi belgilangan bo'lib, jazoni og'irlashtiruvchi hollarda jazoning miqdori yoki turlari o'zgarib borgan. Bunda, firibgarlik uchun belgilangan jazolarning eng og'iri o'n yilgacha ozodlikni mahrum qilish hisoblanadi.

Shuni ta'kidlash kerakki, ilm-fan va texnika taraqqiyoti firibgarlik jinoyati turlari va uni sodir etish usullarini ham keskin o'zgartirib yubordi. Endilikda firibgarlik axborot vositalari yoki internet tarmoqlaridan foydalangan holda, turli o'yinlar va boshqa ko'ngilochar vositalarga qiziqtirish orqali, bank plastik kartalari va moliyaviy tizimlarga xakkerlik hujumlarini uyushtirish orqali sodir etilmoqda. Firibgarlik jinoyatlarini sodir etish usul va uslublari, vositalaridan kelib chiqqan holda sanab chiqadigan bo'lsa, uning oxiriga yetishning imkoni yo'q. Chunki, texnika taraqqiyoti tufayli kengayib borayotgan imkoniyatlar firibgarlikni kasb qilib olgan shaxslar uchun noqonuniy yo'l bilan pul topish borasida turli yangi yangi yo'llarni qidirib topishlariga ilhom manbai bo'lib kelyapti desak adashmaymiz.

Firibgarlik jinoyatining subyektlari yosh jihatdan ham, jins jihatidan ham, kasb jihatidan juda ko'p shaxslarni qamrab olyapti. Ya'ni, oliy ma'lumotli yoki umumta'lim maktabi ma'lumotiga ega shaxslar, ayollar yoki erkaklar, 18 yoshli insonlar yoki 70 yoshli keksalar ham bu jinoyatni sodir etishi ko'p. Boshqa jihatdan firibgarlik sabablari yuqori



bo‘lgan jinoyatlardan sanaladi. Ya’ni, ko‘p hollarda jabrlanuvchilarning ishonuvchanligi, soddaligi, qonunlarni yaxshi bilmasligi yoki qonuni chetlab o‘tishga harakat qilishlari oqibatda firibgarlik qurboni bo‘lishiga olib keladi.

Firibgarlik kundan kunga jamiyatimizda keng tarqalib borayotgan jinoyat turlaridan sanalib, uning soni yildan yilga ortib bormoqda. Bu kabi jinoyatlarga qarshi kurashishda, bunday jinoyatlarga jazo choralarini kuchaytirishning o‘zi yetarli emas.

Firibgarlik jinoyatlarini kamaytirib borish uchun eng avvalo, fuqarolarning huquqiy ongi va madaniyatini oshirish, ularni qonunlarning mazmun-mohiyatidan oddiy va sodda tarzda boxabar qilib borish kerak. Shu bilan birga, keng tarqalib borayotgan yoki yangi usullarda sodir etilayotgan firibgarlik jinoyatlari turlarini alohida ajratib olib, ular haqida fuqarolarga batafsil axborot berib borish maqsadga muvofiq. Xususan, plastik kartalardagi mablag‘larni yechib olish, turli xil qimor o‘yinlariga jalb qilish kabi yangilanib borayotgan firibgarlik jinoyatlarining batafsil tafsilotlarini berib borish yaxshi samara beradi. Shu bilan birga, ma’lum bir vaqtlar sodir etish ko‘payadigan mavsumiy turlari(o‘qishga kiritib qo‘yish, haj marosimiga yoki sayohatga yuborish) bo‘yicha fuqarolarga alohida tushuntirib borish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Firibgarlik jinoyati - iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlar toifasiga kirib, unga amaldagi Jinoyat kodeksining 168-moddasida ta’rif berilgan. Mazkur ta’rifga ko‘ra, firibgarlik - aldash yoki ishonchni suiiste’mol qilish yo‘li bilan o‘zganing mulkini yoki o‘zganing mulkiga bo‘lgan huquqini qo‘lga kiritishdir.

Jinoyat kodeksining mazkur moddasiga ko‘ra, firibgarlik jinoyatini sodir etgan shaxs:

— Bazaviy hisoblash miqdorining 50 baravaridan 100 baravarigacha miqdorda jarima;

— 2 yilgacha axloq tuzatish ishlari;

— 1 yildan 3 yilgacha ozodlikni cheklash;

— 3 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanishi mumkin.

Shuningdek, firibgarlikning miqdori, takroriyliigi, sodir etgan shaxslar, sodir etish vositasidan kelib chiqib javobgarlik chorasi og‘irlashishi mumkin.

Firibgarlik kompyuter texnikasi vositalaridan foydalanib sodir etilgan bo‘lsa:

— BHMning 100 baravaridan 300 baravarigacha miqdorda jarima;



- 3 yilgacha axloq tuzatish ishlari;
- 3 yildan 5 yilgacha ozodlikni cheklash;
- 3 yildan 5 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Firibgarlik xizmat mavqeyidan foydalanib sodir etilgan bo'lsa:

- BHMning 300 baravaridan 400 baravarigacha miqdorda jarima;

- 2 yildan 3 yilgacha axloq tuzatish ishlari;

— muayyan huquqdan mahrum etilgan holda 5 yildan 8 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Agarda, firibgarlik uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini ko'zlab sodir etilgan bo'lsa:

- BHMning 400 baravaridan 600 baravarigacha miqdorda jarima;

- 8 yildan 10 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Etkazilgan moddiy zararining o'rni qoplangan taqdirda ozodlikni cheklash va ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo qo'llanilmaydi.

Oxirgi paytlarda elektron to'lov vositalari yoki masofaviy xizmat ko'rsatish tizimlaridan foydalanib, o'zgarar mulkini talon-toroj qilish, firibgarlik, o'g'rilik jinoyatlari ko'p sodir etilmoqda. Birgina misol: 2022 yilning 7 oyi davomida bank plastik kartalaridan pul mablag'larini firibgarlik va o'g'rilik yo'li bilan talon-toroj qilinganligi holati yuzasidan jami 1 812 ta jinoyat ishi qo'zg'atilgan.

Bugungi kunda ushbu huquqbuzarlik Jinoyat kodeksining firibgarlik, o'g'rilik deb nomalangan 168, 169-moddalari bilan tasniflanmoqda. Biroq ayni paytda ushbu moddalarda belgilangan jazo aybdorlarning chin dildan pushaymon bo'lib, bu yo'ldan qaytishi, ahloqan tuzalish yo'liga kirishi uchun yetarli emasligi, sodda qilib aytganda, jazo yengillik qilayotgani ma'lum bo'lmoqda.

Shu boisdan ushbu Qonun bilan bunday turdagi jinoyatlar uchun jazo og'irlashtirilmoqda. Ya'ni endilikda axborot tizimlariga noqonuniy kirib va ulardan foydalanib sodir etilgan firibgarlik jinoyati uchun bazaviy hisoblash miqdorining 300 baravaridan 400 baravarigacha jarima to'lanadi. Hozir bu miqdor 100 dan 300 gacha.



Yoki amaldagi normaga ko'ra ushbu jinoyat uchun 3 yildan 5 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish belgilangan bo'lsa, endilikda bu muddat 5 yildan 8 yilgacha etib qat'iy belgilanmoqda.

Adabiyotlar:

1. Абдурасулова Қ.П. Фирибгарликнинг жиноят ҳуқуқий муаммолари. Юрид.фа.номзоди...дисс. –Тошкент: 1996. -14б.
2. И. Исмаилов, Д. М. Миразов, Ж. С. Мухторов ва бошқ. Ҳуқукбузарликларнинг сабаб ва шароитларини аниқлаш, таҳлил қилиш ва бартараф этиш: Ўқув қўлланма, Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2017. Б 5.
3. <https://kun.uz/uz/news/2021/07/27/yumshoqsupurgi-jazolar-bilan-firibgarlikni-kamaytirib-bolmaydi>.